| QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI TA'MINOT ZANJIRINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH: ISHLASH MEKANIZMI VA ALGORITMINI ISHLAB CHIQUISH | 816 |
| <i>Umarov Bobur Murtazoyevich</i> | |
| KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI INVESTITSIYA FAOLLIGINI OSHIRISH ORQALI MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH | 822 |
| <i>Abduxakimov Eldor Djaloliddinovich</i> | |
| AGRAR SOHADA KADRLAR TAYYORLASHNI BOSHQARISHNING ILMIY-NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI | 829 |
| <i>Boltayev Nurali Shiramatovich</i> | |
| MAMLAKATIMIZ TURIZM SOHASI XIZMATLAR SIFATI BILAN BOG'LIQ IQTISODIY KO'RSATKICHLAR | 838 |
| <i>Suyunov R. G'.</i> | |
| ПРОБЛЕМЫ И ОГРАНИЧЕНИЯ В ГОРНОДОБЫВАЮЩЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ | 844 |
| <i>Джулибеков Нурмат Каршибекович, Жулиева Гулноз Юлдашевна</i> | |
| BIZNES JARAYONLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH ASOSLARI | 849 |
| <i>Yoqubjanov Muminmirzo Nosirjon o'g'li, Erkinxojiyev Ismoiljon</i> | |
| XIZMAT KO'RSATISH SOHASINING ZAMONAVIY IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI, AHAMIYATI VA UNING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI | 853 |
| <i>Ernazarov Gulam Bekbaevich</i> | |
| SANOAT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHDA TIJORAT BANKLARINING ROLI | 860 |
| <i>Mirzokirov Mirramizjon Mirxoshim o'g'li</i> | |
| ФИНАНСОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК ФАКТОР ТРАНСФОРМАЦИИ И УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ..... | 867 |
| <i>Урунова Мафтуна Гайратовна</i> | |
| АНАЛИЗ ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ ЭКОНОМИКИ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ И ЕЁ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ | 871 |
| <i>Некова Фатима Борисовна</i> | |
| MINTAQA SANOATINI MODERNIZATSIYA QILISHDA KLASTERLASH VA RAQAMLI BOSHQARUV TIZIMLARINING AHAMIYATI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA) | 876 |
| <i>Abdinazarov Xusan Shaymanovich</i> | |
| ТЕМИР YO'L TRANSPORTI TIZIMINI BOSHQARISHDA ZAMONAVIY TASHKILY-IQTISODIY USULLARDAN FOYDALANISH | 882 |
| <i>Kayumov Z.O.</i> | |
| O'ZBEKISTONDA VALYUTA KURSINING SHAKLLANISHI VA UNING INFLATSIYA DARAJASIGA TA'SIRI MEKANIZMI..... | 887 |
| <i>Matrizayev Zafar Gulimboy o'g'li, Viqorjon Bahridinov Akbar o'g'li</i> | |
| МЕХНАТ BOZORINING TRANSFORMATSIYASI VA UNING IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI..... | 892 |
| <i>Soatmo'minova Zarnigor Olimjon qizi, Ollokulova Feruza Mansurovna</i> | |
| RAQAMLI IQTISODIYOTNING TURIZMDA MOHIYATI VA AHAMIYATI..... | 897 |
| <i>Mahmudov Sunnatjon Abdujabbor o'g'li</i> | |
| НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ..... | 901 |
| <i>Мирзаев Кулмамат Джанзакович</i> | |



| | |
|--|-----|
| ELEKTR UZILISHLARINING HUDUDIY IQTISODIYOTGA TA'SIRI VA RISKLARNI BOSHQARISH MEXANIZMLARI | 906 |
| Oltiboyeva Feruza Ulug'bek qizi | |
| DAVLAT TRANSPORT KORXONALARIDA MARKETING STRATEGIYASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI | 911 |
| Uktamov Sarvar Atxam o'g'li | |
| ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ИНСТРУМЕНТЫ ПОДДЕРЖКИ ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКИ В СТРАНАХ ЕС, США И ЯПОНИИ | 915 |
| Газизова Эльмира Хамидовна, Мелибаева Гульнора Ачилловна | |
| SANOATNI HUDUDIY RIVOJLANTIRISHDA ISHLAB CHIQRISH SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISH OMILLARI | 921 |
| O'zmanov Ixtiyor Ibragim o'g'li | |
| SUG'URTA INSTITUTLARI FAOLIYATIDA INNOVATSION YO'NALISHLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI | 926 |
| Sherov Sanjar Radjabovich | |



SUG'URTA INSTITUTLARI FAOLIYATIDA INNOVATSION YO'NALISHLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Sherov Sanjar Radjabovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada sug'urta kompaniyalarining innovatsion faoliyati, uning iqtisodiy mohiyati hamda zamonaviy sharoitdagi ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda sug'urta sohasidagi innovatsiyalar tijorat-ijtimoiy, texnologik, tashkiliy va moliyaviy yo'nalishlar bo'yicha tasniflanib, ularning o'zaro bog'liqligi va kompleks xarakteri asoslab berilgan. Shuningdek, sug'urta mahsulotlarini yaratish, ularni bozorga joriy etish, xizmat ko'rsatish jarayonlarini takomillashtirish hamda raqamli texnologiyalarni qo'llashning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion faoliyat, sug'urta kompaniyalari, sug'urta bozori, raqobatbardoshlik, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, sug'urta mahsulotlari, risklarni boshqarish, moliyaviy barqarorlik.

Abstract. This article analyzes the innovative activities of insurance companies, their economic essence, and their significance in modern conditions. The study classifies innovations in the insurance sector into commercial-social, technological, organizational, and financial directions, and substantiates their interconnection and complex nature. In addition, the theoretical and practical aspects of developing insurance products, introducing them to the market, improving service processes, and applying digital technologies are examined.

Key words: innovative activity, insurance companies, insurance market, competitiveness, digital technologies, artificial intelligence, insurance products, risk management, financial stability.

Аннотация. В данной статье проанализирована инновационная деятельность страховых компаний, её экономическая сущность и значение в современных условиях. В исследовании инновации в страховой сфере классифицированы по коммерческо-социальным, технологическим, организационным и финансовым направлениям, а также обоснована их взаимосвязанность и комплексный характер. Кроме того, раскрыты теоретические и практические аспекты создания страховых продуктов, их внедрения на рынок, совершенствования процессов обслуживания и применения цифровых технологий.

Ключевые слова: инновационная деятельность, страховые компании, страховой рынок, конкурентоспособность, цифровые технологии, искусственный интеллект, страховые продукты, управление рисками, финансовая устойчивость.

KIRISH

Sug'urta faoliyati tarixan doimiy innovatsiyalar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, aynan yangi texnologiyalar va ilg'or yondashuvlarning joriy etilishi orqali sug'urta kompaniyalari xizmatlar assortimentini kengaytirish, mijozlar ehtiyojlariga moslashish hamda bozorda raqobatbardoshligini ta'minlash imkoniga ega bo'lib kelmoqda. Zamonaviy sharoitda innovatsion faoliyat sug'urta sohasining ajralmas qismiga aylanib, u ilmiy tadqiqotlar, raqamli texnologiyalar va yangi biznes modellar asosida yangi turdagi xizmatlarni yaratish hamda ularni bozorga samarali joriy etishni nazarda tutadi.

Bugungi kunda sug'urta institutlari faoliyatida innovatsion yo'nalishlarni takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi, mijozlar talabi va kutishlarining o'zgarishi hamda global moliya bozorlarida raqobatning kuchayishi sug'urta kompaniyalaridan yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Xususan, insurtech yechimlari, sun'iy intellekt, Big Data, blokcheyn texnologiyalari hamda masofaviy xizmat ko'rsatish tizimlarining joriy etilishi sug'urta xizmatlarining tezkorligi, shaffofligi va ishonchligini oshirishga xizmat qilmoqda.



Shu bilan birga, innovatsion yo'nalishlarni rivojlantirish sug'urta xizmatlarini individuallashtirish, risklarni aniq baholash, tarif siyosatini optimallashtirish hamda mijozlarga qulay va moslashuvchan mahsulotlarni taklif etish imkonini beradi. Bu esa sug'urta bozorining kengayishiga, aholining sug'urta xizmatlariga bo'lgan ishonchi va qamrov darajasining oshishiga olib keladi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, sug'urta institutlari faoliyatida innovatsion yondashuvlarni o'rganish, ularni amaliyotga joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish hamda ushbu jarayonda yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish zarur. Natijada sug'urta tizimining barqarorligi, samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish, shuningdek, milliy iqtisodiyotda uning rolini kuchaytirish imkoniyati yaratiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

OECD hisobotlarida sug'urta sektorining raqamli transformatsiyasi moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, bozor shaffofligini oshirish hamda mijozlar huquqlarini himoya qilishda muhim instrument sifatida e'tirof etilgan [1]. Raqamlashtirish jarayoni sug'urta xizmatlarining ochiqligi va ishonchligini oshirish bilan birga, tartibga solish mexanizmlarini ham takomillashtirishga xizmat qiladi.

Swiss Re Institute tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda raqamli texnologiyalarni joriy etish sug'urta kompaniyalarining operatsion xarajatlarini sezilarli darajada qisqartirish, biznes jarayonlarini avtomatlashtirish hamda risklarni baholash aniqligini oshirish orqali moliyaviy samaradorlikni kuchaytirishi ilmiy asoslangan [2]. Shu bilan birga, bu texnologiyalar sug'urta hodisalarini prognozlash va boshqarish imkoniyatlarini ham kengaytiradi.

M. Porter innovatsiyalarni raqobatbardoshlikni ta'minlash va mustahkamlashning asosiy omillaridan biri sifatida baholab, ayniqsa raqamli texnologiyalar xizmat ko'rsatish sohasida, jumladan, sug'urta tizimida qo'shimcha qiymat yaratish, xizmatlar sifatini oshirish va bozor ustunligini shakllantirishda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi [3]. Shu nuqtai nazardan, innovatsiyalar nafaqat yangi mahsulotlar yaratish, balki mavjud biznes jarayonlarini optimallashtirish vositasi sifatida ham namoyon bo'ladi.

P. Schueffel tomonidan InsurTech tushunchasi sug'urta bozorining samaradorligini oshiruvchi kompleks innovatsion ekotizim sifatida talqin qilinadi. Unga ko'ra, raqamli platformalar, startaplar va texnologik yechimlar sug'urta xizmatlarini yanada qulay, tezkor va moslashuvchan shaklga keltirib, iqtisodiy natijalarning ijobiy dinamikasini ta'minlaydi [4]. Bu esa sug'urta kompaniyalari faoliyatining yangi bosqichga o'tishini anglatadi.

J. Dong va T. Finlay fikriga ko'ra, zamonaviy qayta sug'urtalash tizimlarini optimallashtirishda sun'iy intellekt (Artificial Intelligence) va mashina o'rganish (Machine Learning) algoritmlaridan foydalanish sug'urta kompaniyalarining risklarni boshqarish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi [5]. Mualliflar qayta sug'urtalash shartnomalarini dinamik tarzda moslashtirish innovatsion iqtisodiyot sharoitida muhim strategik yo'nalish ekanligini ta'kidlaydilar.

G. Marangwanda tadqiqotlarida qayta sug'urtalash (reinsurance) bo'yicha qarorlarni kompaniyaning umumiy strategik rivojlanish yo'nalishlari hamda ESG (Environmental, Social and Governance) tamoyillari bilan uyg'unlashtirish innovatsion iqtisodiyot sharoitida sug'urta kompaniyalarining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashda muhim omil ekanligi ta'kidlanadi [6]. Ushbu yondashuv risklarni samarali taqsimlash bilan birga, korporativ boshqaruv sifatini oshirish, ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirish va ekologik barqarorlikni qo'llab-quvvatlash orqali kompaniyaning raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

I. Belyaeva fikricha, raqamli transformatsiya sug'urta xizmatlari sifatini oshirish, mijozlarga xizmat ko'rsatish jarayonlarini soddalashtirish hamda bozordagi raqobatbardoshlikni kuchaytirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi [7]. Ayniqsa, mijozga yo'naltirilgan raqamli platformalar va xizmatlar sug'urta kompaniyalarining bozor pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

N. Larionova esa innovatsion texnologiyalar sug'urta kompaniyalari faoliyatining iqtisodiy samaradorligini ta'minlashda strategik ahamiyat kasb etishini ilmiy jihatdan asoslab, ularning joriy etilishi resurslardan samarali foydalanish, operatsion jarayonlarni optimallashtirish va daromadlilikni oshirishga xizmat qilishini qayd etadi [8].

B. Xodiev sug'urta tizimini innovatsion rivojlantirishda davlatning institutsional roli muhim ekanini ta'kidlab, sug'urta bozorida shaffoflik va ishonchni ta'minlash iqtisodiy o'sishning muhim omili ekanini qayd etadi [9]. Fikrimizcha, davlatning faol institutsional ishtiroki sug'urta bozorini modernizatsiya qilish, innovatsion mahsulot va xizmatlarni joriy etish uchun qulay muhit yaratadi.

A. Yuldashev sug'urta institutlari faoliyatida axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish risk-menejment tizimini takomillashtirish, risklarni aniqlash va baholash aniqligini oshirish hamda investitsion faoliyat samaradorligini yuksaltirishda muhim omil ekanini ta'kidlaydi [10]. Uning fikricha, zamonaviy raqamli yechimlar sug'urta kompaniyalariga ma'lumotlarni tezkor tahlil qilish, qaror qabul qilish jarayonlarini optimallashtirish va moliyaviy resurslardan yanada samarali foydalanish imkonini beradi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida deduktiv va induktiv metodlar, shuningdek, mantiqiy va qiyosiy tahlil, tarixiy yondashuv, statistik usullar hamda sistemali tahlil metodlari keng qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sug'urta kompaniyalarining innovatsion faoliyati — bu ilmiy g'oyalar va zamonaviy texnologik yechimlarni izlash, ularni tahlil qilish va amaliyotga joriy etish orqali yangi sug'urta xizmatlarini yaratish, mavjud sug'urta tizimini takomillashtirish hamda sug'urta tashkilotlarining bozorda samarali faoliyat yuritishini ta'minlashga qaratilgan kompleks jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayon innovatsion iqtisodiyot sharoitida kompaniyalarning raqobatbardoshligini oshirish, mijozlar ehtiyojlarini to'liqroq qondirish va risklarni boshqarish samaradorligini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, sug'urta kompaniyalari faoliyatidagi innovatsiyalar turli yo'nalishlarga ajratilishi mumkin (1-jadval).

1-jadval. Sug'urta kompaniyalari faoliyatidagi innovatsiyalarni tasniflash yo'nalishlari

| Innovatsiya yo'nalishi | Mazmuni (ilmiy izoh) | Amaliy ko'rinishlari |
|------------------------|--|---|
| Tijorat va ijtimoiy | Bozor talablariga mos ravishda yangi mahsulotlar yaratish hamda mijozlar ehtiyojlarini qondirish orqali ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan innovatsiyalar | Yangi sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqish, yangi bozor segmentlariga kirish |
| Texnik (texnologik) | Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali operatsion jarayonlar samaradorligini oshirish va xizmatlar sifatini yaxshilash | Raqamli platformalar, sun'iy intellekt asosidagi baholash tizimlari, onlayn sug'urta xizmatlari |
| Tashkiliy | Sug'urta kompaniyalarining boshqaruv tizimi va tashkiliy tuzilmasini takomillashtirish orqali faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan innovatsiyalar | Yangi boshqaruv modellari, kompaniya ichki jarayonlarini optimallashtirish |
| Moliyaviy | Moliyaviy instrumentlar va risklarni boshqarish mexanizmlarini rivojlantirish orqali sug'urta faoliyatining barqarorligini ta'minlashga qaratilgan innovatsiyalar | Yangi sug'urta risklarini shakllantirish, moliyaviy mahsulotlarni diversifikatsiya qilish |

Mazkur tasnif sug'urta kompaniyalarida innovatsion faoliyatni kompleks tizim sifatida chuqur o'rganish imkonini beradi. Unda innovatsiyalar to'rtta asosiy yo'nalishga (tijorat-ijtimoiy, texnik (texnologik), tashkiliy va moliyaviy) ajratilgan bo'lib, har biri sug'urta tizimining muayyan funksional jihatini rivojlantirishga xizmat qiladi hamda umumiy innovatsion ekotizimning barqaror ishlashini ta'minlaydi.

Ushbu yondashuv asosida bir qator muhim ilmiy xulosalar shakllantiriladi. Birinchidan, innovatsiyalar o'z tabiatiga ko'ra ko'p komponentli, tizimli va o'zaro bog'liq jarayon bo'lib, ular bir-birini to'ldiruvchi elementlar sifatida faoliyat yuritadi. Ikkinchidan, texnologik innovatsiyalar ko'pincha tashkiliy boshqaruv tizimining yangilanishini va moliyaviy mexanizmlarning moslashuvchanligini talab qiladi, bu esa innovatsion o'zgarishlarning kompleks xarakterga ega ekanini ko'rsatadi.

Uchinchidan, tijorat-ijtimoiy yo'nalishdagi innovatsiyalar bozorni kengaytirish, mijozlar ehtiyojlarini yanada to'liq qondirish hamda sug'urta xizmatlarining raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. To'rtinchidan, moliyaviy innovatsiyalar esa risklarni samarali boshqarish, kapital yetarilgini ta'minlash va sug'urta kompaniyalarining uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi.

Umuman olganda, mazkur tasnif sug'urta sohasida innovatsion faoliyatni tizimli tahlil qilish, uning rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash hamda samarali boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish uchun ilmiy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Sug'urta mahsulotlarini yaratish va ularni bozorga joriy etishning asosiy g'oyasi jamiyat va mijozlarning o'zgarib borayotgan ehtiyojlariga moslashish bilan bevosita bog'liqdir. Ya'ni, sug'urta innovatsiyalarining markazida iste'molchilarning xavflarni qoplashga bo'lgan yangi talablari, iqtisodiy sharoitlarning o'zgarishi hamda ijtimoiy himoyaga bo'lgan ehtiyojlarning ortishi turadi. Shu nuqtai nazardan, sug'urta sohasidagi mahsulot innovatsiyalarining asosiy obyekti — sug'urtaning o'ziga xos bazaviy xizmatlari bo'lib, ularning mazmuni va qamrovi o'zgarishi yangi innovatsion yondashuvlarni shakllantiradi. Boshqa xizmat turlaridagi o'zgarishlar esa ko'proq texnologik va tashkiliy innovatsiyalar doirasida namoyon bo'ladi.




Sug'urta xizmatlarini sotish va tarqatish kanallarini rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsiyalar bugungi kunda eng dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Chunki raqobat kuchaygan sharoitda sug'urta kompaniyalari uchun mahsulotlarni tezkor va samarali sotish, mijozlarga qulaylik yaratish hamda bozorga kirish darajasini kengaytirish strategik ahamiyatga ega. Ayniqsa, raqamli platformalar, onlayn savdo tizimlari va mobil ilovalar orqali sug'urta mahsulotlarini sotish kanallari sezilarli darajada rivojlanib, sotuv hajmlarini oshirishning asosiy omiliga aylanmoqda.

Tashkiliy innovatsiyalarga misol sifatida sug'urta tovonlarini to'lash jarayonini soddalashtirish va tezlashtirishni keltirish mumkin. Bunday yondashuv mijozlar uchun qulaylik yaratish bilan birga, kompaniyaning ishonchligini oshiradi va mijozlar sodiqligini mustahkamlaydi. Shuningdek, mavjud sug'urta mahsulotlari doirasida qo'shimcha xizmatlarni taklif etish — masalan, kengaytirilgan sug'urta paketlari yoki kompleks xizmatlar — ham tashkiliy innovatsiyalar tarkibiga kiradi. Bu esa kompaniyalarga mijoz ehtiyojlarini yanada to'liq qondirish imkonini beradi.

Texnologik innovatsiyalar esa zamonaviy sug'urta tizimining eng muhim rivojlanish omillaridan biri bo'lib, u internet texnologiyalari va raqamli platformalarning keng joriy etilishi bilan bevosita bog'liqdir. Internet asosidagi tizimlar sug'urta polislarini masofadan turib rasmiylashtirish, mijozlarga onlayn xizmat ko'rsatish hamda jarayonlarni avtomatlashtirish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya yangi turdagi risklarning paydo bo'lishiga ham sabab bo'lmoqda. Jumladan, kibexavflar, ma'lumotlar o'g'irlanishi va fishing kabi tahdidlar sug'urta kompaniyalari uchun yangi risk toifalarini shakllantirmoqda.

Innovatsion rivojlanish maqsadlariga samarali erishish uchun sug'urta kompaniyalari barcha boshqaruv elementlarini yagona tizim sifatida uyg'unlashtirishi zarur. Bunda strategik rejalashtirish jarayonida ichki omillar (tashkiliy tuzilma, moliyaviy resurslar, inson kapitali) va tashqi omillar (bozor raqobati, texnologik muhit, huquqiy tartibga solish) kompleks tarzda hisobga olinishi lozim. Faqatgina shu yondashuv innovatsion faoliyatning barqaror va samarali rivojlanishini ta'minlaydi.

Sug'urta tashkilotlarining innovatsion faoliyati ko'p darajali, tizimli va o'zaro bog'liq jarayon bo'lib, u mahsulot, tashkiliy, texnologik va bozor yo'nalishlaridagi o'zgarishlarni o'z ichiga oladi hamda kompaniyaning uzoq muddatli raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.



1-rasm. Sug'urta tashkilotlari innovatsion faoliyatining asosiy tarkibiy yo'nalishlari

Sug'urta tashkilotlarining innovatsion faoliyati o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, u quyidagi asosiy yo'nalishlar doirasida ilmiy jihatdan talqin etiladi.

Birinchiidan, yangi sug'urta mahsulotlari va xizmatlarini ishlab chiqish jarayoni innovatsion faoliyatning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu yo'nalish sug'urta bozorida yuzaga kelayotgan yangi ehtiyojlar va xavf-xatarlar asosida mijozlarga yo'naltirilgan innovatsion sug'urta mahsulotlarini yaratish, ularning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini ta'minlash hamda raqobatbardosh takliflarni shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Ikkinchiidan, sug'urta mahsulotlarining hayotiy siklini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan jarayonlar innovatsion tizimning ajralmas qismi bo'lib, u shartnomalarni tuzish, mijozlar bilan doimiy aloqani ta'minlash, xizmat ko'rsatish sifatini monitoring qilish hamda sug'urta hodisalari yuz berganda zararlarni tezkor va adolatli qoplash mexanizmlarini o'z ichiga oladi. Ushbu jarayonlar kompaniyaning operatsion samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.



Uchinchidan, sug'urta xizmatlarini ilgari surish tizimi innovatsion faoliyatning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u marketing strategiyalarini ishlab chiqish, kommunikatsiya kanallarini diversifikatsiya qilish hamda raqamli va an'anaviy sotuv mexanizmlarini uyg'unlashtirish orqali sug'urta mahsulotlarini bozorda samarali targ'ib qilish va iste'molchilar orasida keng ommalashtirishga qaratilgan. Bu esa kompaniyaning bozor ulushini kengaytirish va raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Sug'urta kompaniyalarida innovatsion faoliyat nafaqat o'ziga xos xususiyatlar, balki muhim ustunliklar bilan ham tavsiflanadi. Xususan, innovatsion rivojlanish aholining o'zgarib borayotgan ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi, ya'ni yangi risklar va ijtimoiy talablar asosida moslashuvchan sug'urta mahsulotlarini yaratish imkonini beradi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va internet tarmoqlarining keng joriy etilishi sug'urta xizmatlarining qamrovini kengaytirib, mahsulotlar assortimentini diversifikatsiya qilishga olib keladi.

Bundan tashqari, innovatsion yondashuvlar sug'urta kompaniyalariga yangi bozor segmentlariga kirish, geografik jihatdan faoliyat doirasini kengaytirish hamda xalqaro raqobat muhitida o'z mavqeini mustahkamlash imkonini yaratadi. Natijada innovatsiyalar sug'urta mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirib, kompaniyaning umumiy bozor ulushini kengaytirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, sug'urta tashkilotlarining innovatsion rivojlanish jarayonida bir qator muammolar ham mavjud. Birinchidan, tashkilot xodimlarining innovatsion salohiyati yetarli darajada rivojlanmaganligi innovatsion jarayonlarning sekinlashishiga olib keladi. Bu esa yangi texnologiyalarni joriy etish va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlarini cheklaydi.

Ikkinchidan, ayrim sug'urta kompaniyalarida zamonaviy texnologik infratuzilmaning yetishmasligi innovatsion yechimlarni to'liq amalga oshirishga to'sqinlik qiladi. Uchinchidan, innovatsion jarayonlar ko'pincha sust kechadi, chunki mahalliy sug'urta kompaniyalari xorijiy sho'ba kompaniyalar bilan raqobatda texnologik va moliyaviy jihatdan ortda qolmoqda. Bu esa innovatsiyalarni joriy etish sur'atining pasayishiga olib keladi.

To'rtinchidan, sug'urta bozorida innovatsion mahsulotlarga bo'lgan talabning noaniqligi ularning iqtisodiy samaradorligini baholashni murakkablashtiradi hamda investitsiya qilingan innovatsion loyihalarning o'zini oqlash muddatini uzaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, sug'urta tashkilotlarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish zamonaviy sug'urta biznesini boshqarishning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. U yangi boshqaruv yondashuvlarini joriy etish, bozor sharoitiga mos innovatsion xizmatlarni yaratish hamda uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashga qaratilgan strategik jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Natijada innovatsion faoliyat sug'urta kompaniyalarining kelajakdagi daromadlilikini oshiruvchi va barqaror rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sug'urta kompaniyalarining innovatsion faoliyati zamonaviy iqtisodiyot sharoitida ularning barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Ushbu faoliyat ilmiy g'oyalar, zamonaviy texnologiyalar va samarali boshqaruv yondashuvlarini uyg'unlashtirgan holda yangi sug'urta mahsulotlarini yaratish, mavjud tizimlarni takomillashtirish hamda mijozlar ehtiyojlarini yanada to'liq qondirishga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, sug'urta sohasidagi innovatsiyalar tijorat-ijtimoiy, texnologik, tashkiliy va moliyaviy yo'nalishlarda namoyon bo'lib, ular o'zaro uzviy bog'liq holda yagona tizimni shakllantiradi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt asosidagi yechimlarning joriy etilishi xizmatlar sifatini oshirish, operatsion xarajatlarni kamaytirish hamda risklarni samarali boshqarish imkonini bermoqda.

Shu bilan birga, innovatsion rivojlanish jarayonida kadrlar salohiyatining yetarli emasligi, texnologik infratuzilmaning cheklanganligi hamda bozor talabining noaniqligi kabi muammolar mavjudligi aniqlanadi. Bu esa innovatsion loyihalarni amalga oshirishda tizimli yondashuv va strategik boshqaruv zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, sug'urta kompaniyalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish nafaqat yangi mahsulot va xizmatlarni joriy etishni, balki butun boshqaruv tizimini modernizatsiya qilishni ham talab etadi. Natijada bu jarayon kompaniyalarning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta'minlash, bozor ulushini kengaytirish va mijozlar ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. OECD. Technology and Innovation in the Insurance Sector. – Paris: OECD Publishing, 2017. – 96 p.
2. Swiss Re Institute. Sigma No. 3/2021: World Insurance – The Recovery Gains Momentum. – Zurich: Swiss Re, 2021. – 42 p.
3. Porter, M. E. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. – New York: Free Press, 1985. – 557 p.
4. Schueffel, P. Taming the Beast: A Scientific Definition of FinTech // Journal of Innovation Management. – 2016. – Vol. 4, No. 4. – P. 32–54.



5. Dong, J., Finlay, T. A hybrid framework for reinsurance optimization using artificial intelligence // Insurance: Mathematics and Economics. – 2025. – Vol. 120. – P. 45–58.
6. Marangwanda, G. Reinsurance as a strategic governance tool in innovative economies // International Journal of Insurance Studies. – 2025. – Vol. 7, No. 1. – P. 22–34.
7. Беляева И. А. Цифровизация страхового рынка: проблемы и перспективы // Страховое дело. – 2020. – № 4. – С. 3–9.
8. Ларионова Н. В. Инновационные технологии в деятельности страховых компаний // Финансовая аналитика. – 2019. – № 2. – С. 41–48.
9. Ходиев, В. В. Milliy iqtisodiyot va moliya bozorlari rivoji. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 312 b.
10. Юлдашев А. В. Информационные технологии в системе управления страховой компанией. – М.: Юрайт, 2017. – 214 с.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Ei.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>